

NODIRABEGIM FORSIY IJODINI O`RGANISHNING HOZIRGI DAVRDA XOTIN-QIZLARGA BO`LGAN AHAMIYATI

Abdullaeva Nargiza Nasillovna

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb-hunar maktabi
ona tili va adabiyoti fani o`qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Nodirabegimning forsiy ijodi hamda uning hozirgi davr xotin-qizlari hayotidagi ahamiyati masalalari muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: adabiy muhit, radifli gʻazal, bayt, lirika, ruboiy, vazn.

KIRISH

Ayollardan chiqqan buyuk davlat arboblari, yetuk vatanparvarlar, mashhur olimlar bilan bir qatorda soʻz sanʼatining gʻururu iftixori sanalgan shoirlarham bor. Oʻz davr anʼanasiga koʻra Hindistonda fors-tojik tilida ijod qilgan sharqning mashhur shoira Zebunnisobegim va XIX asr birinchi yarmi Qoʻqon adabiy muhiti oʻzbek shoirlari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar shular jumlasidandir. Nodiraning forstojik tilidagi mebosh radifli gazalida vafo mavzui keng doirada kalamga olinadi.

Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi hislatlarni maʼrifat, yaʼni Xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharafli hislatlarni oʻz ruhiga mukammal singdirib olishi va uni sobitkadamlik bilan koʻngil ganjinasida asramogʻini obrazli qilib tasvirlaydi. Odamzod shu sifatlardan maxrum boʻlar ekan, u riyo yoʻliga kirib ketadi.

Nodira oʻz ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqshbandiya yoʻnalishiga asoslangan bir butunlik orkali insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yoʻlidagi ruhiy dunyosini ham juda goʻzal va jonli misralarda ifodalab beradi. Nodira sheʼrlarida islom ruhi, tasavvuf taʼlimi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urugʻini qidiradi. Nodira saroyda yashasa ham, oʻzini maʼnaviy jihatdan baxtiyor hisoblay olmas edi.

ASOSIY QISM

Nodira mumtoz sheʼriyatning mavjud hamma janrlarida qalam tebratdi. Uning oʻzbekcha va forsiychatojikcha gazallari aruzning turli vaznlarida 5, 7, 9, 13, hatto 18 baytli hajmda yaratilgan. Shoira gʻazallarining asosiy qismi 7—9 baytlidir. Nodira mumtoz adabiyot anʼanalarini qunt va ixlos bilan davom ettirgan. Navoiy, Fuzuliy, Bedil gʻazallariga muhammaslar bogʻlagan. Nodira oʻz gʻazallarida koʻproq “mukarrar” (soʻzning takrorlanib kelishi) va “qoʻsh mukarrar” usullaridan

foydalangan. Asarlarida talmeh, majoz, tashbeh, istiora, tazod, tadrij, tashhis, intoq kabi badiiy vositalar mahorat bilan qo‘llangan.

Nodira fors-tojik tilida ham go‘zal, ta’sirchan she’rlar yozgan. Ular ham mazmun va badiiy mahorat jihatdan o‘zbek tilidagi g‘azallaridek yuksak darajada yozilgan bo‘lib, shoira ijodini yana ham keng va to‘laroq o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi.

Shoira Mohlaroyim Nodira dunyoqarashining takomilida o‘zi mansub bo‘lgan islom dunyosining ma’naviy ta’siri katta. Shoira devonida Alloh taolo, payg‘ambar alayhissalom betakror badiiyat bilan vasf etiladi. Tarixiy obrazlar teran mazmun mutanosibligida talqin qilinadi. Bu shoiraning kalom ilmini, islomdini va millatimiz tarixini chuqur bilganidan dalolat beradi. Devon tartib berar ekan, u mavjud an’anaga muvofiq debochani hamd va na’tlar bilan boshlaydi. Ma’lumki, na’t g‘azal deb Muhammad payg‘ambar maqtoviga bag‘ishlangan g‘azallarga aytiladi. Nodira ijodiyotidagi na’t she’rlar ham asosan, vasf, me’rojnoma va shafolat-faxriya mazmunida. Ularda Muhammad payg‘ambarning so‘nggi payg‘ambar ekanligi, olam u tufayli yaratilganligi, qiyomat kunida payg‘ambar shafoti bois ummatlarining barcha gunohlari kechirilishi ohorli mazmun va betakror tashbehtar vositasida ifodalanadi.

Ahmad (Muhammad) Haq taoloning do‘stidir,

Ikki olam uning nuridan namoyondir.

Gunohlar zulmatidan ne qo‘rqinch bo‘lsin,

Axir (Muhammad payg‘ambar) jamolining quyoshi porlagan-ku!

Mana bu misralar ham koinot sarvari na’tida Nodiraning o‘ziga xos nazm namunalarini yaratgani isbotidir:

Muhammadkim, nabilar xotamidur,

Bisoti lam’i Alloh mahramidur.

Agar har kimsakim tab’iyat aylar,

Saodatning savobi a’zamidur.

Ikkala she’r mohiyatan bir-birini to‘ldiradi. Birinchisida Nodira Muhammad alayhissalom Haq taoloning habibi, ikki olam uning nuridan paydo bo‘lgan, uning jamoli quyoshdek hamma yerni yoritib turganda, ma’siyat qorong‘iligidan qo‘rqinchga o‘rin qolmaydi, deb rasuli akramni ulug‘laydi. Shoira bu o‘rinda dastlab islom dini aqidasi ko‘ra, olam Muhammad payg‘ambar tufayli yaratilgani, unga ummat bo‘lish nechog‘lik sharafligi ekani, Rasuli akramning qiyomat kunida o‘z ummatlariga shafe’ligi, jumladan, Nodira ham o‘sha ummatlar qatorida shafolatdan umidvorligi ifodalanadi.

Munojot g‘azaldan olingan mana bu baytda Muhammad payg‘ambarning qiyomat kunida o‘z ummatlarining gunohini Tangridan so‘rovchi shafe’ligi bilan bog‘liq qarashlar o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, Nodira o‘zining gunog‘kor ekanligini aytib, Yaratgandan Muhammad payg‘ambarning haqqi hurmati bandalari, jumladan, o‘z

gunohlarini kechirishni soʻraydi:

Ey Xudo, Ahmadi Muxtorning urugʻ-aymogʻlari haqqi, Kibriyolik lutfing bilan bandalaring gunohini kechir.

Mohlaroyim ijodida xulafoi roshidin vasfiga bagʻishlangan sheʻrlar koʻp boʻlmasa-da, ularning fazilati, islom dini rivojidadagi xizmatlari vasf etilgan misralarni uchratish mumkin. Masalan, mana bu ruboiyda dastlabki toʻrt xalifa- islomning ilk davrlarida Abu Bakirning Muhammad alayhissalomga hamrohlik qilib, mushriklardan qochib gʻorga yashirinish voqeasi, hazrati Umarning odilligi, Usmon va Alilarning dinni mustahkamlash yoʻlidagi xizmatlari tasvirlangan:

Erdi Bubakr yori gʻor anga, Umar adl etti ustuvor anga,

Qildi Usmon charogʻidin ravshan, Murtazo erdi doʻstvor anga.

Umuman, Nodiraning naʼt va manqabat sheʻrlarida Muhammad paygʻambarning fazilatlarini, yaqinlarining islom tamadduni yuksalishi-dagi xizmatlari oʻziga xos pafos hamda ohorli tashbehlar vositasida ifodalangan.

Darhaqiqat, Zebunnisobegim anʼanalarining hayotbaxsh ruhi va taʼsiri XIX asrning birinchi yarmi Qoʻqon adabiy muhiti oʻzbek shoiralari: Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barno-larning bir qancha gʻazal, ruboiy, qitʼa va boshqa janrdagi asarlarida yaqqol koʻzga tashlanib turadi. Bu shoiralarning sheʻrda tilning sodda va ranginligi uchun zahmat chekishlarini Zebunnisobegimga bir izdoshlik harakati, desa aslo xato boʻlmaydi. Ular gʻazallarida Zebunni-sobegim qoʻllagan vaznlar, koʻp iboralar, u gʻazallar asosiga olingan ishq, may, doʻstlik, hajr, firoq, hijron mavzulari, avtobiografik mavzu va boshqalar keyingi oʻzbek shoiralari, xususan, sheʻriy devon yaratgan Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Anbar otin hamda Dilshod Barnolar tomonidan rivojlantirildi, chuqurlashtirildi, nihoyasiga yetkazildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, keyingi davrlarda yashab qalam tebratgan isteʼdodli oʻzbek shoiralarning koʻpchiligi Zebunnisobegim sheʻriyatidan nimanidir oʻrgangan, boshqa bir madaniyat yutuqlaridan unumli foydalangan.

Har qaysi shoira ishq, may, doʻstlik, hajr, firoq, hijron va ayriliq mavzularini qalamga olganida sof muhabbatni tarannum etganlar, hayotni, ezgulikni sevishga, qiyinchiliklarga qarshi tura olishga oʻrgatganlar. Ular kuylagan muhabbat, ularning hayoti barchaga ibratlidir.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Uch shoira. –Toshkent: 1958. 5- bet.
2. O. Sharafiddinov. Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. Tom II. –Toshkent: 1945. - 191
3. Majmuat ush-shuaro. Sharqshunoslik universiteti qoʻlyozmasi. № 3371, varaq8. 6.